



TURKISTONDA OCHARCHILIK: KELIB CHIQISH SABABLARI VA OQIBATLARI (1917–1923-YILLAR)

Boqijonova Sarvinozxon Bahromjon qizi

Namangan davlat universiteti, tarix yo'nalishi talabasi,

E-mail: boqijonova29@gmail.com

Tel: +998773540114

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21467379>

Annotatsiya: Maqolada 1917–1923-yillarda Turkiston o'lkasida yuz bergan ocharchilikning yuzaga kelish omillari, uning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sabablari hamda mahalliy aholi hayotiga ko'rsatgan ta'siri tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, Birinchi jahon urushi, fuqarolar urushi, sovet hokimiyatining "harbiy kommunizm" siyosati, oziq-ovqat rekvizitsiyasi va qishloq xo'jaligidagi inqirozning ocharchilikni kuchaytirishdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqotda ocharchilikning demografik, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari ilmiy jihatdan baholanadi.

Kalit so'zlar: Turkiston, ocharchilik, harbiy kommunizm, oziq-ovqat rekvizitsiyasi, fuqarolar urushi, demografik yo'qotishlar, qishloq xo'jaligi.

Аннотация: В статье на основе исторических источников и современных научных исследований анализируются причины возникновения голода в Туркестане в 1917–1923 годах, его социально-экономические и политические предпосылки, а также влияние на жизнь местного населения. Особое внимание уделяется последствиям Первой мировой войны, Гражданской войны, политике «военного коммунизма», продовольственной развёрстке и кризису сельского хозяйства. Также раскрываются демографические, экономические и социальные последствия голода.

Ключевые слова: Туркестан, голод, военный коммунизм, продразвёрстка, Гражданская война, демографические потери, сельское хозяйство.

Abstract: This article examines the causes, socio-economic and political background, and consequences of the famine that occurred in Turkestan between 1917 and 1923 based on historical sources and modern scholarly research. It analyzes the impact of the First World War, the Russian Civil War, the Soviet policy of War Communism, grain requisitioning, and the agricultural crisis on the outbreak and intensification of the famine. The study also evaluates the demographic, economic, and social consequences of the famine for the population of Turkestan.

Keywords: Turkestan, famine, War Communism, food requisitioning, Russian Civil War, demographic losses, agriculture.

XX asr boshlarida Turkistonda yuz bergan siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar aholi turmushiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. 1917–1923-yillarda fuqarolar urushi, xo'jalikning izdan chiqishi, bolsheviklarning oziq-ovqat siyosati hamda mustamlakachilik davridan meros qolgan iqtisodiy muammolar natijasida keng ko'lamlı ocharchilik yuzaga keldi. Bu fojia minglab insonlarning hayotdan ko'z yumishiga, qashshoqlikning kuchayishiga va o'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mazkur maqolaning maqsadi Turkistondagi ocharchilikning asosiy sabablarini ilmiy manbalar asosida tahlil qilish hamda uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yoritishdan ibora

Tadqiqot metodologiyasi

Turkistonda ocharchilik va uning oqibatlari mavzusiga doir tarixiy adabiyotlarni ikki davr: sovet davri va mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlarga ajratib o'rganish mumkin. Sovet davri (1917–1991-yillar)da yaratilgan tarixiy adabiyotlar orasida XX asr 20–30-yillarida davlat va partiya arboblari G. Safarov, T. Risqulov, N. To'raqulov, F. Xo'jayev, I. Xidiraliyev, shuningdek, P. Alekseenkovning asarlari⁴ muhim ahamiyatga ega. Bu asarlarda, xususan, Turor Risqulovning mashhur kitobida Farg'ona va Yettisuv oblastlaridagi ocharchilik o'zining butun fojiasi va dahshati bilan ko'rsatilgan. XX asr 40–70-yillarida yaratilgan tadqiqotlarda kommunistik mafkuraning ta'siri yaqqol sezilib turadi. Mualliflar bu davrda yaratgan o'z asarlarida ocharchilik va oziq-ovqat muammosini yoritishdan ko'ra, bu davrda sovet va partiya tashkilotlarining rolini ko'rsatishga ko'proq e'tibor qaratishdi. Rossiya Federatsiyasida so'nggi yillarda chop etilgan Ye. Osokina, S. Mironin va V. Kondrashinning monografiyalarida sovet rejimi va bolsheviklar tomonidan sovet Rossiyasida ocharchilikka yo'l qo'yilgani va uning dahshatli oqibatlari manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, ocharchilik mavzusi Qozog'istonda yirik tarixchi olim Burqutboy Ayag'an monografiyasi¹⁷ hamda qozoq va rus tillarida nashr etilgan "1932–1933-yillardagi ocharchilik to'g'risidagi haqiqat" nomli kollektiv monografiyada ham keng yoritilgan. Shuningdek, T. Omarbekovning kitoblarida 1931–1933-yillarda Qozog'istonda bo'lgan ocharchilik masalalari tadqiq etilgan.(3,7-8)

Natijalar

Rossiya markaziy guberniyalaridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvol imperiyaning chekka o'lkalaridagi ahvoldan ancha-muncha farq qilar edi. Bundan kelib chiqqanda, Rossiya imperiyasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ahvolga yagona yondashuv, bir xil baho berish qiyin edi. Ammo shunisi borki, Rossiya imperiyasidagi ahvol u yoki bu darajadagi achinarli ekanligi bilan ko'zga tashlanardi. Bu ahvol, Rossiyaning agrar mamlakatligidan kelib chiqib, qishloq xo'jaligida yerni ishlash va qayta ishlashda, dehqonchilik madaniyatida, chorvachilikka bo'lgan munosabatda yaqqol ko'rinar hamda bunday holat ijtimoiy-siyosiy ahvolga ham ta'sir qilardi. 1897-yil aholini ro'yxatga olish natijalariga ko'ra, Rossiyaning 77 foiz aholisi qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi dehqonlardan iborat bo'lgan. Yana eng muhim muammolardan biri, Rossiya imperiyasida yer yetarli bo'lgani holda, yerga ishlov beruvchi xo'jaliklar maydalashib ketgan edi. Boz ustiga, qishloq aholisining shahar aholisiga nisbatan tezkorlik bilan o'sib borishi ham dehqonlar turmush tarzini og'irlashtirib boraverdi. Oxir-oqibatda bu ocharchilikning vujudga kelishi va kengayishiga olib keldi. 1891-yilda Rossiya imperiyasining 29 ta guberniyasi ocharchilikka duchor bo'lgan bo'lsa, bunday holat 1892-yili va yana 1897–1898-yillarda markaziy va janubiy-sharqiy guberniyalarda, 1901-yili 17 ta markaziy guberniyasida, 1905-yili 22 ta guberniyada, 1906, 1907, 1908 va 1911-yillarda asosan sharqiy, markaziy guberniyalarda ocharchilik vujudga keldi. Yuqoridagi keltirilgan dalillardan ko'rinib turibdiki, Rossiya imperiyasidagi iqtisodiy ahvol XIX asr oxiri va XX asr boshlarida achinarli holatda bo'lgan.(5,7-8)

Turkistonda 1917-yil qishida boshlangan ocharchilik bolshevikcha rejimning qattol siyosati natijasida tobora kuchayib borar edi. O'sha yili Turkiston bo'yicha 52,5 mln pud g'alla yetishtirildi. Holbuki, o'lka aholisining faqat jon saqlashi uchun kamida 110 mln pud bug'doy kerak edi. Buning ustiga Toshkentda zo'ravonlik bilan hokimiyatni egallagan bolsheviklar hukumatining rahbarlari nafaqat siyosiy boshqaruvda, balki iqtisodiy sohada ham qo'pol xato va jinoyatlarga yo'l qo'yishdi. Ana shunday jinoyatlardan biri 1918-yil 26-fevralda Turkiston

XKS raisi F.I. Kolesov imzolagan paxta tolasi va xom paxtani musodara qilish to'g'risidagi dekret edi. Mazkur dekretga ko'ra, qisqa vaqt ichida zavodlarga topshirilgan 3,4 mln pud paxta tolasi, 6 mln pud xom paxta, 600 000 pud paxta yog'i, 4 mln pud chigit, 1,1 mln pud kunjara sovet davlati ixtiyoriga bepul o'tdi. Dehqonlar zavodga topshirilgan paxtasi uchun ham, uyidan olib ketilgan paxta xom ashyosi uchun ham loaqal past narxda bo'lsa-da pul olmadilar. Bu hol bir tomondan paxtakor dehqonlarni junbushga keltirsa, ikkinchi tomondan ocharchilikni kuchaytirib yubordi. Harbiy tarixchi D. Zuyevning keyinchalik yozishicha, paxtani musodara qilish haqidagi dekret Farg'ona osmonida to'satdan yangragan momaqaldiraq bo'ldi. 1918-yil yanvarda Turkiston XKS huzurida oziq-ovqat bo'limi ochilib, unga katta huquqlar berildi. Ma'lumki, 1918-yil 9-mayda RSFSRda oziq-ovqat diktaturasi joriy qilingan edi. Bu masala Markazning o'zida ham qat'iylik bilan amalga oshirildi. Turkistonda esa 1918-yil 15-iyunda uch kishidan iborat o'lka oziq-ovqat Direktoriyasi tashkil qilindi. Direktoriyaning o'z faoliyati davomida katta xatolarga yo'l qo'ydi. Ochlikning yovuz changali kekirdakdan ushlab turgan paytda faqat rus aholisi oziq-ovqat bilan ta'minlandi.(2,76)

Muhokama

Ocharchilik ichak, vabo, oshqozon, sil, bezgak va boshqa kasalliklarning borgan sari ko'payishiga olib keldi. O'z navbatida o'sha kasallarni davolash uchun dori-darmonlar, davolash muassasalari, davolovchi mutaxassis-shifokorlar mutlaqo yetishmas edi. Ko'cha-ko'ylarda egasiz qolib ketgan o'liklar bir necha kunlab yig'ishtirib olinmas edi.(4,48)

Risqulov Turkistondagi ocharchilik va uning dahshatli oqibatlarini tugatish uchun kurashdi, bolsheviklarning mahalliy xalqlarning ochlikdan qirilishiga befarq, mensimaslik munosabatini ochiq tanqid qildi. T. Risqulov boshchiligidagi ayrim milliy kommunistlar Markazning shovinistik siyosatini, Turkbyuro va Turkkomissiyaning zo'ravonlik kirdikorlarini, qizil askarlarning bosqinchilik va talonchiliklarini ochib tashladilar. O'lka musulmonlari Byurosi raisi sifatida u "Turk Respublikasi" va "Turk Kompartiyasi" tuzish haqidagi masalani Markaz siyosiy rahbariyati oldiga qo'yadi. Biroq Markazning topshirig'i bilan Turkkomissiya Turkiston xalqlari birlashishiga yo'l qo'ymadi. Aksincha, ularni ajratish chora-tadbirlarini ko'radi.(1,81)

Turkiston ASSRda bolsheviklarning oziq-ovqat siyosati va ocharchilik muammosi" nomli ikkinchi bobda Turkiston o'lkasida ocharchilikning boshlanish sabablari, Farg'ona va Samarqand oblastlarida 1917-1923-yillarda bo'lgan ocharchilik, uning kuchayishi va oqibatlari ko'rsatilgan. 1917-yilda Butunrossiya qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish chog'ida Samarqand uyezdidagi Chashmaiob volosti aholisi yo'ng'ichqa (beda)dan tayyorlangan "non" iste'mol qilayotganligi aniqlangan. Dehqonlar g'alla yetishmasligi sababli o'z chorva mollarini sotishga yoki so'yib yeyishga hamda don sotib olishga majbur bo'lganlar. Shuning uchun ham chorva mollarining miqdori chorvador rayonlarga nisbatan o'troq joylarda keskin darajada kamayib ketgan. Turor Risqulovning yozishicha, bu paytda Turkiston Respublikasini ocharchilik o'ziga qamrab oladi, shaharlar, qishloq va ovullarda iqtisodiy inqiroz kuchayib, aholining ahvoli og'irlashadi hamda bu holat dahshatli ocharchilikni keltirib chiqaradi. Turkiston Respublikasi aholisining yarmini o'z ichiga olgan ocharchilik bilan kurashda, yuzlab va minglab halok bo'layotgan yo'qsillar (proletarlar) va kambag'al dehqonlarni qutqarishdan tashqari tub kambag'al aholini boylar va mustamlakachilar zulmidan ozod qilish jarayonida mahalliy kommunistlar guruhi va kambag'allar tashkilotlari tashkil topdi, ocharchilik aslida chorizmning

zulmga asoslangan siyosati natijasida iqtisodiy jihatdan qoloq o'lkaga aylangan mahalliy xo'jalikning vayronalari ostida vujudga kelgan edi.(3,14-15)

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, 1917–1923-yillarda Turkistonda yuz bergan ocharchilik tasodifiy yoki faqat tabiiy omillar natijasida kelib chiqqan hodisa emas edi. Uning asosiy sabablari Birinchi jahon urushi oqibatlari, fuqarolar urushi, xo'jalik tizimining izdan chiqishi, bolsheviklarning oziq-ovqat rekvizitsiyasi siyosati hamda chor Rossiyasi mustamlakachilik davridan meros bo'lib qolgan iqtisodiy qoloqlik bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Ayniqsa, g'alla yetishtirishning keskin kamayishi, chorvachilikning tanazzulga uchrashi va transport tizimidagi uzilishlar ocharchilikning yanada chuqurlashishiga sabab bo'ldi. Ocharchilikning oqibatlari Turkiston jamiyati uchun nihoyatda og'ir kechdi. Minglab oilalar o'z yashash manbalaridan ayrildi, yuz minglab aholi ochlik, epidemiyalar va majburiy ko'chishlar oqibatida halok bo'ldi yoki o'z yurtini tark etishga majbur bo'ldi. Bu jarayon o'lkaning demografik tarkibi, iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy hayotiga uzoq yillar davomida salbiy ta'sir ko'rsatdi. Turor Risqulov va boshqa zamondosh arboblarning asarlarida qayd etilganidek, ocharchilik mahalliy aholi boshidan kechirgan eng og'ir tarixiy fojialardan biri sifatida baholangan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, 1917–1923-yillardagi ocharchilik keyinchalik sovet hokimiyati davrida yuz bergan yanada keng ko'lamli oziq-ovqat inqirozlari va majburiy iqtisodiy siyosatlarning boshlanishi uchun zamin yaratdi. Shu sababli mazkur davrni chuqur va xolis o'rganish nafaqat tarixiy haqiqatni tiklash, balki mustamlakachilik va zo'ravon iqtisodiy siyosatning jamiyat taraqqiyotiga qanday og'ir oqibatlar olib kelishini anglash nuqtai nazaridan ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Sultonov F., Bozorboyev F. O'zbekiston hukmdorlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – 88 b.
- 2.Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi (1917–1924-yillar). – Toshkent: Universitet, 2002. – 166 b.
- 3.Rahmatov M.G'. Turkistondagi ocharchilik va uning oqibatlari (1917–1924 yy.): PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 54 b.
- 4.Расулов А., Режаббоев Н. Туркистонда очларга ёрдам кўрсатиш комиссияси фаолияти. – Фарғона, 2012. – 124 б.
- 5.Расулов А., Режаббоев Н. Туркистонда очарчиликка қарши кураш. – Тошкент: Javohir-ilm-nashr, 2025. – 208 б.